



MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON AHOLISINING TURMUSH TARZIDAGI TARIXIY O'ZGARISHLAR

M. Z. Axmedova

Millat Umidi Universiteti

Annotatsiya : Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda aholi turmush tarzida yuz bergan tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik tamoyillari mustahkamlanib, bozor iqtisodiyoti asoslari joriy etildi, aholining ijtimoiy himoyasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari tubdan yangilandi. Uy-joy sharoitlarini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, yoshlar va ayollar faolligini oshirish borasida keng ko'lamli dasturlar amalga oshirildi. Maqolada ushbu jarayonlarning asosiy bosqichlari va natijalari, shuningdek, mustaqillikning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, turmush darajasi, ijtimoiy islohotlar, iqtisodiy rivojlanish, bozor iqtisodiyoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, uy-joy, yoshlar siyosati, milliy qadriyatlar.

Аннотация : В данной статье анализируются исторические, социальные и экономические изменения в уровне жизни населения Узбекистана после обретения независимости. В период независимости были укреплены основы национальной государственности, внедрены принципы рыночной экономики, существенно обновлены системы социальной защиты, образования и здравоохранения. Реализованы крупные программы по улучшению жилищных условий, развитию инфраструктуры, повышению активности молодежи и женщин. В статье раскрываются основные этапы и результаты данных процессов, а также влияние независимости на развитие общества.

Ключевые слова: Независимость, уровень жизни, социальные реформы, экономическое развитие, рыночная экономика, образование,



здравоохранение, социальная защита, жилье, молодежная политика, национальные ценности.

Abstract : *This article analyzes the historical, social, and economic changes in the standard of living of the population of Uzbekistan following the country's independence. During the independence period, the foundations of national statehood were strengthened, market economy principles were introduced, and the systems of social protection, education, and healthcare were significantly modernized. Large-scale programs were implemented to improve housing conditions, develop infrastructure, and enhance youth and women's participation in public life. The article highlights the key stages and outcomes of these reforms and examines the impact of independence on societal development.*

Keywords: *independence, standard of living, social reforms, economic development, market economy, education, healthcare, social protection, housing, youth policy, national values.*

Kirish:

O'zbekistonning 1991-yilda mustaqillikka erishishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizimning, balki butun jamiyat hayotining tubdan yangilanishiga sabab bo'ldi. Qariyb bir asr davomida markazlashgan boshqaruv ostida bo'lgan mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Eng muhimi, xalq ongida "biz o'z kelajagimizning egasimiz" degan fikr shakllandi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi turmush darajasi, dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, hayot tarzi va ijtimoiy faoliyati sezilarli darajada o'zgardi. Bu davr xalqimiz tarixida tom ma'noda yangi sahifa bo'lib, milliy tiklanish va zamonaviy taraqqiyot bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Mustaqillikning ilk yillarida xalq manfaatini birinchi o'ringa qoygan holda yangi qonunlar yozildi va ommaga tadbiq etildi.

Ma'naviy uyғonish va milliy o'zlikning tiklanishi:

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi va ma'naviy merosni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Sovet davrida cheklangan diniy e'tiqod erkinligi ta'minlandi, Qur'on va diniy adabiyotlar



nashri kengaydi , yangi masjidlar , madrasalar va islom markazlari barpo etildi . Din inson ruhiy tarbiyasida muhim kuch sifatida qayta tiklandi . Bu xalqning erkinligining yana bir ko'rinishi sifatida xizmat qildi .

Shuningdek , tarixiy shaxslar merosini chuqur o'rganish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlandi . Buyuk ajdodlar — Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi , Alisher Navoiy nomi , ilmiy va harbiy merosi qayta tiklandi . Ularning haykallari o'rnatildi , ilmiy tadqiqotlar chuqurlashtirildi . Milliy bayramlar — Navro'z , Mustaqillik kuni , Qurbon va Ramazon hayitlari umumxalq miqyosida keng nishonlana boshlandi .

Natijada jamiyatda milliy g'urur , vatanparvarlik , ma'naviy mas'uliyat , tarixiy xotira kuchaydi . Ayniqsa yosh avlodda o'z millati va yurtiga iftixor bilan qarash , ajdodlari qanday buyuk inson bo'lganlarini bilish orqali kelajakga bo'lgan qiziqish ortdi.

Iqtisodiy hayotdagi tub o'zgarishlar:

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot bosqichma - bosqich modernizatsiya qilindi . Dastlabki yillarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash eng muhim vazifa bo'lgan bo'lsa , keyinchalik bozor mexanizmlarini joriy qilish , xususiy sektorni rivojlantirish , investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar olib borildi . Bu olib borilgan islohatlar ham albatta xalqni o'ylab sekin astalik bilan bo'ldi. Ma'muriy – buyuruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga o'tildi , buning samarasini hozirgi kunda ham davlatimizning iqtisodiy jihatdan o'sishlarida ko'rsak bo'ladi , O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti ko'rsatgichi 2023 – 2024 yillardagi ko'rsatgichga qaraydigan bo'lsak 5,6% o'sish suratiga yetgan .

Asosiy o'zgarishlar:

- ❖ Milliy valyuta — so'm muomalaga kiritildi .
- ❖ Ko'chalarning , mahallalarning , metro bekatlarining nomlari o'zgartirildi .
- ❖ Xususiy mulk daxlsizligi konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlandi .
- ❖ Tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratildi .



- ❖ Savdo , xizmat ko‘rsatish , qurilish va transport sohalari jadal rivojlandi .
- ❖ Katta sanoat majmualari , elektr energiya inshootlari , yo‘llar va ko‘priklar qurildi .
- ❖ Qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligi tugatilib , meva - sabzavotchilik , bog‘dorchilik , chorvachilik kengaydi .

Natijada o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi oshdi , oilaviy daromadlar ortdi , shahar va qishloqlarning ko‘rinishi o‘zgartirildi , yanada zamonaviyroq qilib qayta qurildi. Xalqning kundalik hayotida yangi iste‘mol madaniyati , zamonaviy turmush tarzi shakllandi . Bunday o‘zgarishlardan xalq ham hursand bo‘ldi .

Uy-joy va infratuzilmaning yangilanishi:

Mustaqillikdan oldingi yillarda aholi uchun uy-joy masalasi dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda yangi turar - joy massivlari , ko‘p qavatli uylar , xonadonlar , qishloq joylarda “ Obod qishloq ” , “ Obod mahalla ” dasturlari orqali minglab zamonaviy uylar foydalanishga topshirildi .

Shuningdek:

- Ichimlik suvi va gaz ta‘minoti yaxshilandi .
- Avtomobil yo‘llari va transport tizimi modernizatsiya qilindi .
- Savdo markazlari, shifoxonalar, maktab va bog‘chalar qurildi .
- Internet, aloqa tizimlari va texnologiyalar rivojlandi .
- Bugun Toshkent va yirik shaharlar Markaziy Osiyoda eng zamonaviy megapolislar qatoridan joy olgan .
- Ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimining rivoji .

Mustaqillik bilan birga ta‘lim sohasida ham tub burilishlar sodir bo‘ldi . Milliy ta‘lim tizimi shakllandi , yangi o‘quv dasturlari yaratildi , xalqaro universitetlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi , xususiy maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yildi , bu esa yanada ko‘proq oily ma‘lumotli insonlarning ortishiga sabab bo‘ldi .

Islahotlar natijalari:

- Ko‘plab oliygohlar, xususiy universitetlar ochildi .
- Yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish dasturlari joriy etildi .



- Maktab ta'limi modernizatsiya qilindi .
- Raqamli ta'lim va zamonaviy texnologiyalar kirib keldi.

Bugun o'zbekistonlik yoshlar xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib , ilm-fan , texnologiya , tibbiyot , ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritmoqda . Bu esa kelajak rivojiga zamin yaratmoqda .

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy tizim rivoji :

Aholi salomatligini yaxshilash davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi . Qator zamonaviy tibbiy markazlar , diagnostika laboratoriyalari , shifoxonalar qurildi . Onalar va bolalar salomatligini saqlash bo'yicha maxsus dasturlar joriy qilindi. Bu axolining salomatlik darajasini oshishiga sabab bo'ldi .

Sport infratuzilmasi kengayib , jismoniy tarbiya va ommaviy sportga e'tibor kuchaydi . Natijada yoshlar o'rtasida sog'lom hayot tarzi va sport madaniyati shakllandi . Xalqaro musobaqalar va yoki turnirlarda O'zbekistonlik sportchilar g'alaba qozona boshlashdi , ularning soni ortdi . Bu orqali O'zbekistonning nomi boshqa bir davlatlarda tanilishiga sabab bo'ldi .

Xulosa :

Mustaqillik yillari O'zbekiston xalqi hayotida ulkan tarixiy burilish davri bo'ldi . Ma'naviy , iqtisodiy , siyosiy va ijtimoiy sohalardagi islohotlar natijasida :

- Aholining dunyoqarashi o'zgardi .
- Turmush darajasi va hayot sifati oshdi .
- Shaharlar va qishloqlar yangilandi .
- Yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi .
- Yosh tadbirkorlarga imkoniyatlar darajasi ortdi .
- Milliy g'oya, tarixiy xotira , an'analar va urf – odatlar , ma'naviyat mustahkamlandi .

Bugungi kunda O'zbekistonliklar o'z kelajagini o'zlari belgilashi , bilim va mehnati orqali taraqqiyotga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan jamiyatda yashamoqda . Davlatimiz mustaqil bo'lishi xalqimizga juda ham foydali bo'ldi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent, 1992.



2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent, 1998.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (stat.uz)
5. “O‘zbekiston tarixi” (darslik – Oliy o‘quv yurtlari uchun), Toshkent, 2020.
6. Qodirov A., Axmedov B. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. – Toshkent, 2019.